
SHOHIDA EGAMOVA
FERUZA ABDUJABBOROVA
MA'RUFJON DUSTMURODOV

O'ZBEK TILI

(Darslik)



Toshkent - 2026

O‘zbekiston Respublikasi Oriental universiteti

“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasining

18-sonli majlisi bayonnomasidan

KO‘CHIRMA

2026-yil 15-may **Toshkent shahri**

Majlis raisi: kafedra mudiri PhD T.M. Isaqulov

Majlis kotibasi: M.R.Voxidova

Qatnashdilar: prof. N. Quchqorova, prof. F.Egamberdiyeva, prof. D.A.Nazarova, prof. K.Nosirov, dots. M.Toshov, dots. Sh.Karimova, dots. K.Murotmusayev, dots. Sh.Alimbayeva, dots. D.Taylakova, dots. F.Bayjonov, dots. D. To‘xtasinov, dots. F.Abdujabbarova, dots. Sh. Egamova, dots. J.Mamadiyorov dots. J.Shomurodov, dots.v.b. N.Ergasheva, katta o‘qituvchilar: A.Baymatova, Abirova U, Mirsagatova N, Mamanazarov U, Rustamova B, Quylieva O, Namozova G, Sanayev A, Odilbekov M, Abdurazzoqov O‘, o‘qituvchilar: Xikmatova Sh, G‘ofurov J, Maxmudov Yu, Yusupov U, stajyor-o‘qituvchilar: Xatamova F, Xidirova G va kabinet mudirasi Umirzoqova N.

KUN TARTIBI:

2. Yangi o‘quv adabiyotlarni o‘quv-uslubiy kengash muhokamasiga tavsiya etish to‘g‘risida.

2.4. Kafedra dotsentlari: Sh. Egamova va F.Abdujabbarova hamda Tillar1 kafedrasi dotsenti M. Do‘stmurodovlar tomonidan tayyorlangan “O‘zbek tili (rus guruhlari uchun)” nomli darsligini universitet o‘quv-uslubiy kengashi muhokamasiga tavsiya etish.

ESHITILDI:

Majlis raisi T.M. Isaqulov kun tartibidagi masalani e’lon qildi va mualliflarga so‘z berdi. Ular ko‘rsatmaning yaratish maqsadi, amaliy zarurati, tarkibi, ilmiy-uslubiy asoslari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining amaldagi talablari hamda OAK me’yorlari bilan uyg‘unligi haqida ma’lumot berdi.

Kafedra dotsentlari Sh. Egamova va F. Abdujabbarova hamda Tillar1 kafedrasi dotsenti M. Do‘stmurodovlar tomonidan tayyorlangan “O‘zbek tili” nomli darslik mazmuni, tuzilishi va ilmiy-amaliy ahamiyati haqida batafsil ma’lumot berildi.

Darslikda o‘zbek tilining fonetik, orfoepik, orfografik, leksik, grammatik va uslubiy jihatlari izchil yoritilgan. Shuningdek, davlat tilining huquqiy maqomi, nutq madaniyati, ish yuritish, kasbiy muloqot va hujjatchilik masalalariga alohida e’tibor qaratilgani uning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mualliflar mavzularni yoritishda ilmiylik, izchillik va tushunarlilik tamoyillariga amal qilganlar. Nazariy materiallar sodda va ravon uslubda bayon qilingan bo‘lib, amaliy topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyasini oshirish hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan.

SO‘ZGA CHIQDI:

Prof. F. Egamberdiyeva so‘zga chiqib, darslikning mazmuni davlat ta’lim standartlari va fan dasturlariga mos ravishda ishlab chiqilganligini, mavzular izchillik bilan yoritilganligini hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidladi.

Dots. Sh.Karimova darslikning ilmiy-uslubiy jihatdan puxta tayyorlanganligini, amaliy topshiriqlar va mustaqil ta’lim uchun berilgan materiallar uning sifatini oshirganligini qayd etdi.

Dots. M. Toshov mazkur darslikni ta’lim jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini bildirib, uni universitet O‘quv-uslubiy kengashi muhokamasiga tavsiya etishni qo‘llab-quvvatladi.

QAROR QILINDI:

1. Sh. Egamova, F. Abdujabbarova va M. Do‘stmurodov tomonidan tayyorlangan “O‘zbek tili (rus guruhlari uchun)” nomli darslik muhokama qilinib, ma’qullansin.

2. Mazkur darslik Oriental universiteti O‘quv-uslubiy kengashi muhokamasiga tavsiya etilsin.

3. O‘quv-uslubiy kengashning ijobiy xulosasi olingandan so‘ng darslikni nashrga tavsiya etish belgilansin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasi mudiri PhD T.M. Isaqulov zimmasiga yuklatilsin.

Majlis raisi: **T. M. Isaqulov**

Majlis kotibasi: **M.R.Voxidova**